

HERMANN HESSENING “SIDDHARTHA” ASARIDA INSON KAMOLOTI VA O‘ZLIKNI ANGLASH MUAMMOSINING FALSAFIY-ANTROPOLOGIK TALQINI

To‘lanboyeva Qorako‘z Muxtorjon qizi

Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Jasur Sulaymonov

PhD, dotsent, Sharq falsafasi va germeneftika kafedrası mudiri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada „Siddhartha“ asarida ifoda etilgan inson va uning mohiyatida namoyon bo‘luvchi jihat va farqlar falsafiy yondashuvga asoslanib antropologik masalalar va ularning tahlillari muhokama etiladi. Hind tafakkuridagi inson borlig‘iga oid yondashuvlar qiyosiy jihatdan ko‘rib o‘tiladi.*

Tayanch tushuncha va iboralar: *buddaviylik, Budda, Siddhartha, meditatsiya, zohidlik, ichki ruhiyat, karma, nirvanaga erishish, qayta tug‘ilish, bir nigohda uch ming olam, o‘zlik, Atman.*

KIRISH

Inson o‘zi va unga bog‘liq bo‘lgan voqeliklar, xususiyatlarni bilishga va udan kelib chiquvchi huzurga erishishni istaydi. Boshqa millat, boshqa irq, boshqa ijtimoiy sharoit bo‘lishiga qaramasdan, insonning qadriyatlarida o‘xshashlik mavjud. Asrlar davomida insoniyat aynan o‘zini o‘rganish orqali ko‘plab ma‘rifatlarga erishdi va bu jarayon davom etmoqda. Chunki davrlar almashinuvi insonlarning jamiyatdagi roli va xususiyatini o‘zgartiradi. Shu sababli, falsafiy talqinda homo sapiens turkumidagilar izlamoq va topmoqqa ahd qilgandir. Asar sharqona an‘analarni o‘zida mujassam etish bilan birga insoniyat uchun tafakkur shakllarini ifoda etadi. “Siddhartha asarining birinchi qismi 1919-yilning kuz va qish oylarida yozilgan. So‘ngra, o‘ta sermahsul o‘tgan o‘sha yildan keyin, Hesse uzoq davom etgan tushkunlik (depressiya) holatini boshdan kechirdi va bir yarim yil davomida asarni davom ettira olmadi. Nihoyat, 1922-yil bahorida u kitobni yakunlashga muvaffaq bo‘ldi va o‘sha yilning o‘zida Berlin shahridagi S. Fischer Verlag nashriyoti tomonidan chop etildi”. Hermann Hesse bu romani 1922-yilda nashr etilgan. Biz tanishib chiqqan asar badiiy bo‘yoqlar bilan yozilgan bo‘lishiga qaramay, uning asosiy g‘oyalarida inson omili, insonning mavjudlik xususiyati muhokama etiladi. Asar markaziy g‘oyasida Inson tabiatining izlanishi masalasi turadi. U diniy, falsafiy va hayotiy tajribalar orqali o‘z “Men”ini izlaydi. Bu jarayon inson tabiatini chuqur tahlil etadi, ya‘ni inson o‘zligini qanday anglaydi, hayotiy ma‘no qanday topiladi – ana shu savollarga javob izlanadi.

Asar qahramoni Siddhartha obrazi orqali hayotdan ma‘no izlab yo‘lga chiqqan, ma‘rifat va o‘z-o‘zini kashf etishga intilgan shaxsni kashf etamiz. Ko‘hna Hindiston diyorida ulg‘aygan Siddhartha brahman oilasidan chiqqan, yaxshi ta‘lim va tarbiya

olgan edi. Lekin unga o'zi yashab turgan hayot tartiboti yetarli huzurni bera olmadi. Demak, nimadir xato, uning nazdida.

MUHOKAMA

Brahmanning o'g'li Siddxarta aqlli va hurmatga sazovor, ammo u an'anaviy ta'limotlar haqiqiy ma'rifatga olib kelmasligini his qiladi. O'z ruhiyatida sokinlik topa olmagach, unga o'rgatilgan qadriyatlar ham o'z xususiyatini yo'qotadi. U o'z uyini do'sti Govinda bilan tark etib, o'zini inkor etish orqali chuqurroq haqiqatni izlab, samanlar guruhiga qo'shiladi. Bu davr davomida samanlarga xos bo'lgan amaliyotlarni a'lo darajada o'rgandi, hatto yuqori darajaga olib chiqqanligi uchun samanlar ustozlari ham o'z o'rgatganlari oldida ojiz qoladi. Budda Gautama ta'limotlari samanlar orasiga ham yetib borgach, ikki do'st unga juda qiziqadilar. Atrofdagilarning ta'riflari va unga ergashishlari Budda donoliklari haqida so'zlardi. Oxir-oqibat, Siddhartha Gautama Budda bilan uchrashadi, lekin ma'rifatni o'rgatib bo'lmaydi, deb hisoblab, unga ergashmaslikni tanlaydi – Uning fikricha, ma'rifatni yoxud u erishmoqchi bo'lgan mohiyatni boshdan kechirish kerak. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, asarda Siddhartha va Budda obrazi alohida ta'riflanadi, ammo buddaviylik tarixiga nazar solsak, bunga mos kelmaydi. Muallif majoz orqali boshqa narsaga ishora qilgan bo'lishi mumkin.

Budda bilan suhbatidan keyin Siddharthada tasavvurlar o'zgarib, har bir narsani mana shu dunyoning o'zida, moddiy dunyoni o'rganadi, badavlat savdogarga aylanadi. Aslini olganda, Siddharthaning haqiqatni izlab yo'lga otlanishiga turtki bo'lgan undagi savollar edi. Aynan savollar falsafaning keng qamrovli vazifa va mohiyatini ochib beradi. Hind falsafasining o'zida falsafiy tafakkur rivoji ham Upanishadlarda berilgan savollardan boshlangan deyish mumkin. "Upanishadlar shunday savol qo'yadi: o'zgarishlar orasida ham o'zligini yo'qotmay, doimiy qoladigan haqiqat nima?". Insonning dastlabki xususiyatida bilish uchun o'z-o'ziga yoki insoniyatga savol bilan yuzlanishi uning asosiy maqsadini belgilaydi. Jumladan Siddhartha ham savollariga javob izlash uchun bu yo'lni yashab ko'rishni, boshdan kechirishni xohlaydi. Antropologiyani asosiy savoli bo'lgan „Inson kim?“ so'rovi butun bir yo'nalishni ta'minlaydi, mezonlarni belgilaydi. Buddaviylikda keluvchi muqaddas ruh – Atman Siddhartha uchun ochilmagan sir, o'rganilmagan bilim edi. O'zining avvalgi o'rgangan bilimlari to'liq ochiqlamagan deb qabul qilishi uni turli hayotlarda bo'lishga undadi. U diniy ta'limotlarga, o'qituvchilar va faylasuflarga suyanmasdan, hayotni o'z tajribasi orqali o'rganishni afzal ko'radi. Bu – falsafiy jihatdan ekzistensialistik yondashuvga yaqin bo'lib, inson hayotining mohiyati haqida shaxsiy anglash asosida xulosa chiqarishni ta'kidlaydi.

O'z-o'zidan qoniqmaslik hissi ba'zida insonni noto'g'ri yo'lga boshlashi mumkin. Chunki bilishning o'zi kamlik qiladi, har doim ham aqlga tayanish bir tomonlama yondoshuvga ega bo'lib qoladi. Buni yana-da tushunarli bo'lishi uchun Siddhartha va Budda Gautama bilan suhbatiga nazar solish kifoya. Suhbatda Budda Gautama ilmda ochko'zlikdan, behuda bahs va muhokamalardan saqlanishni maslahat beradi va

aqiling seni adashtirmasin deya Siddharthaga ta'kidlaydi. Aynan bu suhbatdan so'ng Siddhartha o'z qarashlarini boshqa tarafdin tushunishga harakat boshlaydi. Jamoatdan uzoqda, zohidlar kabi hayot kechirish Siddhartha nazdida o'zini oqlamagan amaliyot bo'ldi. U shu daqiqadan o'zi yashab turgan olamda, moddiy dunyoda ishtirok etishni maqsad qildi va hayotning lazzatlari haqida xabardor bo'lishni xohladi. Shu zaylda samanlikni tark etib, makon izlab ketarkan, daryodan o'tish uchun bir qayiqchiga duch keladi. Ularning suhbatida Siddhartha odatiy hayot tarzining yuksak haqiqati borasida tushunadi:

„— Sendan minnatdorman,— dedi Siddhartha qirg'oqqa chiqarkan. — Menda senga berishga na pul, na bir sovg'a bor, qadrdon do'stim. Men brahman o'g'li musofir bir samanman.

— Ko'rib turibman,— dedi qayiqchi.

— Shuning uchun sendan na sovg'a, na to'lov tama etolaman. Yonimga boshqa safar sovg'a bilan kelarsan.

— Sen bunga ishonasanmi? — dedi Siddhartha unga kulib.

— Albatta, hamma narsa qaytuvchidir. Buni ham menga daryo o'rgatgan. Barcha narsa qaytadi va sen ham... “.

Bu jumlar Siddharthaning ongini yana-da ochib yuborishiga xizmat qildi. U yo'lida davom etar ekan, muhabbat va his-tuyg'ular uning ham ichki olamida mavjud ekanligini his qildi va Kamala ismli ayolga ko'ngli tushdi. Uning e'tiborini qozonish uchun savdogarga yordamchi bo'ldi. Bu kabi jarayonlarda Siddhartha avval duch kelmagan bilimlarga ega bo'lardi, ammo uning nazdidagi huzur hamon noma'lum edi. Barcha dunyoviy lazzatlarga to'la hayotda yasharkan, undagi samanlik qalbi asta unutilishni boshladi. U buni o'zi sezib tursa ham, atrofdagi muhit uni bunga yana-da tortib borardi. Hatto qimor va ishratga berilib yurgan paytida ham ich-ichidan uning qalbi va ruhi bu insonlar va bu sharoitga tehisli emas ekanligini sezib turardi.

Buddaviylikda har bir lahzada uch ming olam konsepsiyasi mavjud bo'lib, unga ko'ra, har bir insonning ongida uch ming olam gavdalanishi masalasi ko'tariladi. Bilimning manbayi sifatida tajriba nuqtai nazaridan, Siddhartha faqat kitobiy bilimlardan emas, bevosita hayotiy tajriba orqali haqiqatni anglashga harakat qiladi. Bu antropologik jihatdan insonning bilish jarayoni, tajriba, ong va his-tuyg'ular orqali shakllanishini anglatadi. Haqiqiy donolik ta'limdan emas, tajribadan kelib chiqadi degan fikr juda mos keladi. Inson o'zi tehisli bo'lgan jamiyatdan ajralgan holda haqiqatga erisha olmaydi. Bilimlarning isboti tajribada ko'rinadi. Siddhartha ham xuddi shunday o'zi tehisli bo'lmagan vaziyatlarda yashab, asl hayotning qonuniyatlarini ko'rib, o'zining chinakam xususiyatini tushuna boshladi.

Siddxarta oxir-oqibat hamma narsani ortda qoldirib, daryo bo'yida abadiy donolik bilan yo'g'rilgan tinchlik topadi. U Vasudeva ismli kamtar paromchidan o'rganishni boshlaydi, u o'zini chuqur tinglashni o'rgatadi. Bu soddalik va tafakkur hayoti orqali Siddhartha nihoyat o'zi izlagan ma'rifatga erishadi. Shu o'rinda, inson o'z izlaganini o'z

atrofidan topishi mumkin ekanligi haqida ham ishoralar beriladi. Chunki Siddhartha bu darajaga kelgunicha bosib o'tgan yo'lini boshlagan joyiga qaytib kelganligini ta'kidlaydi. Aum unga buning ahamiyatini ochib beradi.

Antropologik qarashlarga ko'ra, asarda insonning jamiyatdagi o'rni, uning jismoniy va ma'naviy ehtiyojlari, hayot va o'lim, baxt va izzat kabi tushunchalarga falsafiy-antropologik yondashuv mavjud. Siddhartha insonni ikki darajada ko'radi: Ruhiy mavjudot sifatida – u meditatsiya, ichki osoyishtalik, samoviy haqiqatlarga yetishishni istaydi. Jismoniy mavjudot sifatida – u shahvoniy zavqlarga, boylikka, dunyoviy hayotga ham yuz tutadi. Siddhartha bu jarayonlarning har birini boshidan o'tkazadi. Inson bir vaqtning o'zida ruhiy poklanishga intiluvchi va dunyoviy ne'matlarga bog'lanuvchi mavjudotdir. Bu yondashuv insonni murakkab, ziddiyatli mavjudot sifatida tasvirlaydi va antropologiyani asosiy savollaridan biri – “Inson kim?” degan savolga javob beradi. Siddhartha orqali hayot yo'lining bosqichma-bosqich tahliliga keladigan bo'lsak, Inson hayoti bir yo'nalishdan iborat emas, u turli bosqichlarda shakllanadi degan g'oya ilgari suriladi. Siddhartha avval asketizmga beriladi, keyin dunyoviy zavqlarga berildi, so'ng esa tabiat bilan uyg'unlikda yashab, hayot ma'nosini topadi. Bu – inson rivojlanishining bosqichma-bosqich yo'li sifatida ko'rsatiladi. Aslida bu umumiy mazmunga ega bo'lgan izohdir. Uni ayrim jihatlar mavjud bo'lgan ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib o'zgarishi ham mumkin. Lekin bir insonning hayot kechirishida duch kelishi tabiiy bo'lgan voqeliklar sifatida qabul qilsak bo'ladi.

Xulosa

Asarda shunhasiz Sharq falsafasi va antropologiyasining uyg'unligiga guvoh bo'lamiz. Yozuvchi badiiy obrazlar orqali hinduizm, buddaviylik ta'limotlarida aks etgan inson borlig'i haqida bayon qilar ekan, sharqona tafakkur asoslarini ham keltirib o'tgan. Insonni tabiat va koinot bilan bir butun deb qaraydi. Bu g'oya G'arb antropologiyasidan farqli ravishda insonni jamoaviy uyg'unlikda tasavvur qiladi. Bundan tashqari Romanda Hinduizm, buddizm, Vedalar, meditatsiya, karma, samsara kabi tushunchalar muhim falsafiy vosita sifatida foydalanilgan. Inson tabiat bilan bir butun deb qabul qilinuvchi o'rinda ayniqsa, daryo obrazida vaqt va hayotning abadiyligi ifodalanadi.

Siddhartha obrazi asosida o'zligini qidirib yo'lga chiqqan shaxsdan tashqari, ma'rifat orqali „men“ni topish va uning xususiyatlari anglashga intilgan insonni ko'ramiz. Bunda tajriba yordamida bilimga erishish masalasi asosiy o'rinda turadi. Falsafiy nuqtai nazardan Siddhartha hayotiy tajriba orqali haqiqatni anglash mumkinligini ta'kidlaydi. Nazariy bilim, hatto diniy bilimlar ham insonni haqiqatga yetaklamasligi mumkin – asosiy kalit bu – ichki tajriba va shaxsiy anglashdir deb ta'kidlanadi. Uning hayotidagi voqealar yuzasidan hayot bosqichlari orqali taraqqiyotni ham keltirish o'rinli. Siddhartha hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi: asketizm, shahvoniy hayot, boylik orttirish, tushkunlik, va nihoyat, tabiat bilan uyg'unlik. Har bir

bosqich insonning o'zini tanib borishi uchun zarur tajribalarni beradi. Bu bosqichlar orqali asarda inson taraqqiyoti fazalarga bo'lingan holda tasvirlanadi. Bu bo'linish hinduiylik hamda buddaviylik tampyillari asosida bo'lishiga qaramay, har bir insonning o'ziga xos hayot pog'onalari bo'ladi. Ularning qanday ekanligi esa dunyoqarash orqali shakllanadi.

"Siddhartha" asari insondagi kechuvchi barcha jismoniy hamda ruhiy jarayonlarni, insonning o'zini izlash, ruhiy o'sish va hayot ma'nosini topish yo'lidagi falsafiy-antropologik izlanishni aks ettiradi. Asarda inson individual, boshqacha qilib aytganda, shaxsiy tajribalar orqali mukammallikka intiluvchi mavjudot sifatida qaraladi. Siddharthaning hayoti orqali inson tabiati, ichki kurashlari, dunyoga munosabati va hayot haqidagi mulohazalari chuqur ifodalanadi. Ushbu asar bugungi kunda ham inson falsafasi va antropologiyasiga oid dolzarb masalalarni yoritishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hesse H. Siddhartha: A Dual-Language Book / Translation, Introduction and Glossary by Stanley Appelbaum. – Mineola, N.Y.: Dover Publications, 1998. – xv, 175 p
2. Hirianna, M. Outlines of Indian Philosophy. – Delhi: Motilal Banarsidass Publishers Pvt. Ltd., 1993. – 425 p.
3. Radhakrishnan S. The Principal Upanishads. – 2nd ed. – London: George Allen & Unwin Ltd., 1968. – 962 p.